



XALQ DEPUTATLARI DO‘STLIK TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

Do'stlik tuman Do'stlik ko'chasi 16 uy, +998 72 335 4165, dustlikkengash@mail.ru
2026-yil 10-aprel VII-14-49-3-47-K/26 Do'stlik tumani

2026-yilda Do'stlik tumani bo'yicha "Alkagol mahsulotlari"ni realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan "Alkagol mahsulotlari"ni realizatsiya qilish uchun yig'implarning cheklangan stavkalarini oshirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrda "2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-1105-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda "Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-387-sonli qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6-24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Do'stlik tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda "Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risida 387-sonli qarori 2-xatboshi "v"-bandida xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga "Alkagol mahsulotlari"ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan "Alkagol mahsulotlari"ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig'implarning cheklangan stavkalarini 20 foizgacha oshirish vakolati berilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2026-yil uchun Do'stlik tumani hududida "Alkagol mahsulotlari"ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan "Alkagol mahsulotlari"ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig'implarning miqdorlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Do'stlik tumani hokimining birinchi o'rinbosari (I.Qarshiboyev), Do'stlik tumani soliq inspeksiyasi (M.Normurodov) bilan birgalikda mazkur qaror o'z vaqtida va samarali bajarilishini ta'minlash choralari ko'rsin.

4. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi zimmasiga yuklatilsin.

5. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran uch oy o'tgach qonuniy kuchga kiradi.

Kengash raisi



**KULTAYEVA
MOXIDIL
NIZOMOVNA**

Xalq deputatlari Do'stlik tumani
Kengashining
2026-yil 10-apreldagi
VII-14-49-3-47-K/26 -son qaroriga
1-ilova

**2026-yil uchun Do'stlik tumani hududida "Alkagol mahsulotlari"ni
(bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy
ovqatlanish korxonalari tomonidan "Alkagol mahsulotlari"ni (bundan pivo
mustasno) realizatsiya qilish uchun yig'implarning miqdorlari**

Yig'im turi	Bir oyga (so'mda)	
	O'RQ-1105-sonli Qonuni 9-ilovasiga asosan belgilangan chegaralangan stavkalar	2026-yil uchun to'lanadigan yig'im miqdori
"Alkagol mahsulotlari"ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig'im	300 000	345 000
Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan "Alkagol mahsulotlari"ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig'im	150 000	177 500